

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXIK
RIVOJLNISHI VA TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR**


Salomova Gulandom Amriyevna

*Samarqand shahar 59-umumiy
o'rta ta'lif maktabining MMIBDO'*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni tarbiyalash jarayonidagi psixologik xususiyatlari va innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy bolalar bog'chasi, psixik taraqqiy etish, bolalar asosiy faoliyati, o'yinlari, "ilk qadam".*

Maktabgacha ta'lif mutaxassislari ta'lif tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va amalga oshirish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantrishning zaruriy sharti ekanligiga qo'shiladilar. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, tiziologik (jismoniy) va o'ziga xos xususiyatlan psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lif va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiysiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdag'i davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdag'i bolalar ham psixik jihatdan turlicha b o'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi. pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur. Tarbiyalanuvchilar bir-birlariga o'zaro ta'sir etishlari va mazkur imkoniyatdan oqilona foydalana olish tarbiya jarayonining ta'sirini kuchaytiradi. Ularning o'zaro munosabatlarining barqarorligi, shuningdek, birgalikdagi faoliyati ularda jamoaviylik, o'zaro ishonch, mehribonlik, bir-birlari uchun qayg'ura olish, hamdardlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarning qaror topishiga ko'maklashadi. Maktabgacha ta'lif muassasasi bola uchun boshlang'ich va asosiy tarbiya maskani hisoblanib, aynan tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi tarbiya tizimida katta o'rin tutadi. U tarbiyachidan ikkita asosiy y o'nalishda faoliyatni amalga oshirishni talab etadi: 1) tarbiyalanuvchilami kishilarning mehnat faoliyati bilan keng tanishtirish; 2) tarbiyalanuvchilami real hayotiy munosabatlarga, ijtimoiy foydali faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bog‘cha Yoshdag'i bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha Yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog‘cha Yoshdag'i bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzlusiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Ushbu Yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog‘langan: mehnat va o‘qish. Bu Yoshdag'i bolalarning o‘yin, mehnat va o‘qishni o‘zlashtirishlarini ketma-ketligi bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha Yosh davri tahlil maqsadida shartli ravishda 3 ta davrga bo‘linadi: kichik maktabgacha Yosh davri (3-4 Yosh), o‘rta maktabgacha Yosh davri (4-5 Yosh) va katta maktabgacha Yosh davri (5-6 Yosh). Ushbu bo‘lish Yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvorigagi jadal va sifatiy o‘zgarishlarni qayd etish uchun o‘tkaziladi.

Bog‘cha Yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 Yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o‘rganishi;
- individual predmetli o‘yinlar, jamoa syujetli-rolli o‘yinlar;
- individual va guruhiy ijod;
- musobaqa o‘yinlari;
- muloqot o‘yinlari;
- uy mehnati.

Bog‘cha Yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog‘chadagi o‘rtoqlari va qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar.

Ma’lumki, bolaning Yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha Yoshdag'i bolalarning etakchi faoliyati o‘yindir. Bu Yoshdag'i bolalarning o‘yinlarini uchga bo‘lish mumkin:

- 1)predmetli o‘yinlar(15-20 minut o‘ynaladi);
- 2)syujetli-rolli o‘yinlar (30-60 minut o‘ynaladi);
- 3) qoidali o‘yinlar (1soatdan -2kungacha davom etishi mumkin).

Mazkur yosh davridagi bolalarning kattalar bilan munosabatga kirishuvining eng muhim xususiyatlaridan biri – ularning xohish-istiklarini boshqarish imkoniyati mavjudligidir. Ularni kattalarning ezgu niyatiga ko‘niktirish, ota-onalar va murabbiyalar mayliga bo‘ysundirish mumkinligidir. Ularning boshqa yosh davrlaridagi bolalardan farqi

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ularda nisbatan xotirjam, barqarorroq his-tuyg'ular mavjudligi, ularning affektiv holatlardan uzoqroqlik, nizolarga kam berilishidir. Bunday bolalarda affektiv (jazavali) holat yuz berishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'lib, yaqqol harakat bilan emas, balki tasavvur obrazlari dinamikasi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Bevosita idrok qilinmaydigan holatlarga nisbatan his-tuyg'u, murakkab ichki tug'yon va kechinmalarining paydo bo'lishi, keyinchalik emotsiyonal o'sish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yin faoliyatida bemor singari yig'laydi, o'yining ishtirokchisi sifatida quvnaydi. Shuning uchun uning kechinmalari bemor to'g'risidagi tasavvur obrazlarining majmuasi bilan ularning nisbatan rang-barangligi bilan aniqlanadi. Bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarining amaliy ifodasi kabi gavdalanadi. Ertaklar tinglashda bolada qahramonlar to'g'risidagi dastlabki kechinmalar paydo bo'ladi, unga emotsiyonal ta'sir etish imkoniyati tug'iladi, kechinmalarni aks ettirish esa tasavvur doirasida vujudga keladi. Masalan: doktor – davolaydi, shofyor – haydaydi, sotuvchi – mol sotadi, uchuvchi – samolyotni boshqaradi, o'quvvatchi – bolalarga bilim beradi va hokazo.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli mактаб та'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1. "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi. 2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhalarda mavjud markazlar hamda umumiy guruhdha ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)
3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)
4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruhi yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)
5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida husnihat, rus-ingliz tillari, sport, applikatsiyalar yasash, loy bilan ishlash va boshqa yo'naliishlarda ishlaydilar. Maktab yoshidagi bolalar ko'p narsaga qiziqadigan bo'ladilar. Bolalar muassasalarida maktab yoshidagi bolalar o'yinlar bilan, narsalarni yasash orqali va hokazolar bilan maktabga tayyorlanadilar.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bolalar matabga borgach biroz qo'rquv va hayajonda bo'lishadi. Psixologlar bu haqida shunday deyishadi —Maktabda noqulayliklarni his qilishda, zirikish paydo bo'ladi. Bunday oldini olish uchun birinchi navbatda maktabga moslashish kerak, muhitiga ko'nikma hosil qilish kerak! 6-7 yoshli bolalar asta sekin o'z faoliyatini baholashni shakllantiradi, bu uning faoliyati qanchalik muvaffaqiyatlik ekanini, o'qituvchilar va atrofdagilarning nuqtai nazarini baholashda tengdoshlari qanchalik muvaffaqiyatli ekanini tushunishiga bog'liq. Bu jarayon oila muhitiga ham bog'liq. Ruhiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi marta maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Shunga qaramasdan bolaning psixologiyasini o'rganish kerak. Maktabda o'quvchi uyda ota-onalar bola bilan shug'ullansa, bolada ortiqcha stresslar bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida hozirda maktab yoshidagi bolalar uchun yangi shartsharoitlar yaratilmoqda. Kuchli pedagog va tarbiyachilar jalb qilinmoqda. Psixologlar ishlamoqda. Albatta, bundan ham bolalar psixologiyasi yanada chuqurroq o'rganiladi, ularni maktabga tayyorlash uchun yangi samarali metodlarni ishlab chiqariladi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, bolalar kelajagimiz ularni qancha erta tarbiyalab, savodxon qilsak, shuncha tez ko'nikma hosil bo'ladi va yangi sharoitlarga ko'nikuvchan bo'lib, biliml, intiluvchan bo'ladiilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
2. M.Voshidov. «Bolalar psixologiyasi». Toshkent. 1982.
3. G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
4. Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
5. Muxina V.S. "Shestiletney rebenok v shkole". M: 1986